

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.M.Matqulov</b>	
Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek.....	372
<b>D.M.Uktamovna</b>	
"Mehrobdan chayon" va "Tanazzul" romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligi ...	377
<b>M.B.Siddiqov</b>	
Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli.....	381
<b>S.S.Abdullayev, D.M.Obidova</b>	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi .....	387
<b>R.I.Madaliev</b>	
Artpedagogika vositasida (teatr sa'nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari .....	391
<b>D.Z.Xudaykulova</b>	
Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari.....	395
<b>Sh.A.Dosbayeva</b>	
Mantiqiy fikrlesh mashg'ulotlarining didaktik ta'minotini takomillashtirish.....	402
<b>D.A.Xomidova</b>	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish.....	408
<b>B.S.Sharipova</b>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	412
<b>T.S.Axmedova</b>	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat dasturidan foydalanish .....	416
<b>N.M.Aliyev</b>	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli .....	420
<b>A.E.Normatov</b>	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o'simliklari yordamida tozalash .....	425
<b>I.O.Umarov</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta'lif talabalarida o'quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi .....	428
<b>X.A.Madaminov</b>	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi .....	433
<b>B.Q.Qurbanova, M.Esonmirzayeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya fani asosida milliy kasibga yo'nalrishning usul va metodlari.....	437
<b>S.M.Boboraximov</b>	
Kichik sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati .....	441
<b>N.A.Akbarova</b>	
Farg'ona viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroti va natijalari .....	445
<b>A.A.To'raxonov, A.A.Ergashev</b>	
Alovida ta'lif ehtiyojiga ega o'quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari .....	450
<b>M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova</b>	
Umumta'lif muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida).....	457



УО'К: 372.878 (575.1)

**FARG'ONA VILOYATI MUSIQA MAKTABLARINING RESPUBLIKA VA XALQARO  
TANLOVLARDAGI ISHTIROKI VA NATIJALARI**

**УЧАСТИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ МУЗЫКАЛЬНЫХ ШКОЛ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В  
РЕСПУБЛИЧЕСКИХ И МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНКУРСАХ**

**PARTICIPATION AND RESULTS OF MUSIC SCHOOLS OF FERGANA REGION IN  
REPUBLIC AND INTERNATIONAL COMPETITIONS**

Akbarova Nigora A'zamxonovna 

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali assistenti

*Annotatsiya*

*Ushbu maqolada Farg'ona viloyati musiqa maktablarining mustaqillik davriga qadar va mustaqillik davrida xalqaro hamda respublika tanlovlari idagi ishtiroki, natijalari tahliliga oid ma'lumotlar yoritilgan. Ushbu tadqiqot davomida musiqa va san'at maktablari faoliyatidagi yutuq va muammolar aks etgan bo'lib, tadqiqot maqsadi viloyat musiqa va san'at maktablarining xalqaro va respublika ko'rlik tanlovlari idagi ishtirok etishi, natijalarini tahlil etish orqali mazkur ta'lif muassasalarining jamiyat hayotidagi o'rnini ko'rsatib o'tishdir. Maqolada beriladigan ma'lumotlar tarixiylik, xolislik, izchillik, qiyosiy-mantiqiy asosidalik yoritildi. Musiqa maktablari joriy arxivlaridagi, viloyat arxivi fondlaridagi, matbuot sahifalaridagi mavzuga oid ma'lumotlar, og'zaki tarix ma'lumotlarini tadqiq etib iste'molga kiritish vazifasini ham bajaradi. Mazkur maqola ma'lumotlaridan kelgusida musiqa madaniyati, musiqiy ta'lif tarixi yo'nalishlarida tadqiqot olib boruvchi tadqiqtchilar foydalanishi mumkin. Shuningdek, mazkur maqola orqali musiqa va san'at yo'nalishi bo'yicha o'tkaziladigan respublika va xalqaro tanlovlardan haqida ma'lumot olish mumkin.*

*Аннотация*

*В данной статье освещены сведения об участии и анализе результатов музыкальных школ Ферганской области в международных и республиканских конкурсах до и в период независимости. В ходе исследования были отражены достижения и проблемы в деятельности музыкальных школ и школ искусств. Подчеркнуты историчность, объективность, последовательность и сравнительно-логическая обоснованность представленных в статье сведений. Также выполняет задачу исследования и использования информации по теме, устно-исторической информации в текущих архивах музыкальных школ, региональных архивных фондах, страницах прессы. Информация данной статьи может быть использована исследователями, проводящими исследования в области музыкальной культуры и истории музыкального образования, в будущем. Также благодаря этой статье вы сможете получить информацию о национальных и международных конкурсах в области музыки и искусства.*

*Abstract*

*In this article, information on the participation and analysis of the results of music schools of Fergana region in international and republican competitions before and during the period of independence is highlighted. During this research, achievements and problems in the activities of music and art schools were reflected. The historicity, objectivity, consistency, and comparative-logical basis of the information provided in the article were highlighted. It also performs the task of researching and making use of information on the topic, oral history information in the current archives of music schools, regional archive funds, press pages. The information of this article can be used by researchers conducting research in the fields of music culture and history of music education in the future. Also, through this article, you can get information about national and international competitions in the field of music and art.*

**Kalit so'zlar:** bolalar musiqa va san'at maktablari, ko'rlik-tanlov, xalqaro tanlov, "Ona yurt ohanglari", konsert, maqomchilar tanlovi, xalq cholg'ulari, akademik ijro, estrada xonanadligi, "Mug'om".

**Ключевые слова:** детские музыкальные и художественные школы, прослушивание, международный конкурс, «Мелодии родного края», концерт, конкурс макомистов, народные инструменты, академическое исполнительство, эстрадная музыка, «Мугом».

**Key words:** children's music and art schools, auditions, international competition, "Sounds of Motherland", concerts, makomists' competition, folk instruments, academic performance, pop singing, "Mugom".

## KIRISH

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni aqlan barkamol, ruhan va jismonan sog'lom qilib tarbiyalash insoniyatning barcha jamiyatlarida asosiy vazifa hisoblanadi. Bu vazifani esa ta'lim tizimi orqali amalga oshirish eng maqbul va samarali yo'ldir. Bu borada inson ruhiyatiga bevosita ta'sir qilib, uning ma'naviy va aqliy kamoloti uchun xizmat qiluvchi musiqa va san'at ta'limini rivojlantirish, uning taraqqiyoti uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash muhim omildir [8]. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi" [1].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUHOKAMASI

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda musiqa madaniyatining turli yo'naliшlarini aks ettirgan ko'plab ilmiy asarlar yaratildi. Xususan, O'zbekistonda musiqa madaniyati tarixini o'rganishda A.Mavrulov, X.Xamidov, Y.Ergasheva, F.Ernazarov, Y.A.Smesova, Z.R.Ishanxodjayeva, N. Mustafayevalarning dissertatsiyalari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Yuqoridagi barcha adabiyotlar musiqa san'atiga doir ilmiy asarlar bo'lib, ularda O'zbekistonda musiqa madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanish jarayonlari aks etgan. Lekin aynan musiqa va san'at arboblarini tarbiyalab, ularni yutuqlariga poydevor bo'luvchi musiqa maktablari faoliyati juda kam tadqiq etilgan. Mustaqil O'zbekistonda musiqa ta'limining taraqqiyoti, musiqa maktablarining xalqaro va respublika tanlovlardagi ishtiroki va natijalariga doir ma'lumotlar ayrim viloyatlar misolida B.Irzayev [5: 206-207] va S.Murtozovalarning [6: 80-99] tadqiqotlarda keltirib o'tilgan bo'lsa-da, mustaqillik yillarda va aynan Farg'ona viloyati kesimida alohida tadqiq etilmagan.

## NATIJA VA MUHOKAMALAR

Sovet hokimiysi davrida ta'lim tizimiga nisbatan qo'llangan "qoldiq prinsipi" natijasida musiqa maktablarining moddiy-texnik bazasi nochor holatda edi. Shunga qaramay dastlabki musiqa maktablari o'quvchilari ham o'z yo'naliшlarida bir qancha muvaffaqiyatlarga erishganlar. Arxiv materiallarining guvohlik berishicha, 1965-1966-o'quv yilida viloyatdagi Marg'ilon shahar 1-musiqa maktabidan 3 nafar dutor va 1 nafar akkordion yo'naliшi, Qo'qon musiqa maktabidan 1 nafar fortepiano va 1 nafar rubob yo'naliшi, Farg'ona shahar 1-musiqa maktabidan 1 nafar fortepiano yo'naliшi, Farg'ona shahar 2-musiqa maktabidan 1 nafar fortepiano, 1 nafar violonchel, 1 nafar klarnet va rus xalq cholg'ulari yo'naliшi, Rishton musiqa maktabidan esa 1 nafar fortepiano yo'naliшi o'quvchilari respublika bosqichidagi tanlovlarga tavsiya etilgan [2].

1968-yili yana Oltiariq tumani musiqa maktabida viloyat maktablari o'zbek xalq cholg'u orkestrlarining katta konsertlari o'tkazilganligi juda muhim voqeadir [3].

Agar millatning ravnaqi uning ma'naviy qadriyatları mustahkamligiga bog'liq bo'lsa, madaniyat va san'atga bo'lgan munosabatni yanada yaxshilash, bozor munosabatlari qiyinchiliklari sharoitida mazkur soha va unda xizmat qilayotganlarni ijtimoiy himoyalashni davom ettirish lozim. Bunday sharoitda madaniyat, xususan, qo'shiqchilik san'ati ustidan davlat g'amxo'rliги va homiyligi o'rnatilmasa, mazkur san'at turning rivojlanishi oson bo'lmaydi [7]. Mana shu haqiqatni teran tushungan holda O'zbekiston hukumati mustaqillikniing ilk kunlaridan ma'naviy-madaniy sohalarni tubdan isloh qilishni boshladi.

Istiqlol sharofati bilan musiqiy ta'lim sohasining taraqqiy etishi musiqa maktablari yutuqlarini yanada jonlantirdi, xalqaro va respublika tanlovlardida musiqa maktabi o'quvchilari ishtirokini yanada oshirdi. Mustaqillik yillarda davlatning musiqa maktablariga ko'rsatgan mislisiz e'tibori natijasi o'laroq respublika bo'yicha hozirda barcha sharoitlarga ega 312 ta musiqa va san'at maktablari faoliyat yuritmoqda [8]. Mazkur maktablar o'quvchilari xalqaro tanlov va festivallarda muvaffaqiyatlri ishtirok etib kelishmoqda. Birgina "akademik cholg'ular va estrada ijrochiligi" respublika tanlovida 2007-yilda 5230 nafar, 2010-yilda 5724 nafar talabgor ishtirok etgan bo'lsa, 2013-yilda qatnashchilar 1,5 marotabaga ortib, 8044 nafarga yetdi. 2014-yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan "Ona yurt ohanglari" birinchi xalqaro tanlovi tashkil etilib, unda 10 dan ortiq davlatlardan yosh iste'dod egalari ishtirok etdi. Yosh ijodkorlarimizdan Mavlonbek O'rmonov (qonun), Ma'ruf Qodirjonov (qashqar rubobi) kabilalar mazkur tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritdi [5: 206-207]. Mustaqillik yillarda viloyat musiqa va san'at maktablarining erishgan yutuqlarini alohida ayrim maktablар misolida ko'rib chiqamiz.

## ILMIY AXBOROT

Viloyatimizdagi “yoshi ulug” maktablardan hisoblangan Farg’ona shahar 2-BMSM joriy arxivlaridagi materiallarni o’rganganimizda maktabning 2010-yildagi yutuqlaridan guvohik beruvchi ma’lumotlarga duch keldik [4]. Xususan, respublika miqyosidagi tanlovlarda quyidagicha natijalar qayd etilgan:

- 2010-yili Urganchda bo’lib o’tgan “Akademik ijro va estrada xonandaligi” tanlovida maktabning fortepiano sinfi o’quvchisi D.Kiselyova 2-o’rinni, estrada xonandaligi sinfi o’quvchilari S.Kim va Sh.Ahmedovalar 3-o’rinni;
- 2010-yili Samarqandda bo’lib o’tgan “Yagonasan muqaddas vatan” ko’rik-tanlovida estrada xonandaligi sinfi o’quvchisi U.Elmurodzoda 3-o’rinni;
- 2011-yili an’naviy Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi ko’rik-tanlovda xalq cholg’u sozları sinfi o’quvchisi X.Jo’rayev va akademik xonandalik sinfi o’quvchisi U.Rustamovlar 1-o’rinni, an’naviy xonandalik sinfi o’quvchisi U.Elmurodzoda va akademik xonandalik sinfi o’quvchisi M.Yunusovlar 3-o’rinni;
- 2013-yili Qarshida bo’lib o’tgan “Akademik ijro va estrada xonandaligi” tanlovida maktabning fortepiano sinfi o’quvchilari D.Xolmatova 1-o’rinni, R.Bo’riboev 2-o’rinni, R.Ibragimov maxsus diplomni;
- 2014-yili Toshkentda o’tkazilgan Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi ko’rik-tanlovda akademik xonandalik sinfi o’quvchisi R.Bo’riboev 2-o’rinni, an’naviy xonandalik sinfi o’quvchisi O.Abdulahadov 1-o’rinni qo’lga kirtdilar.

Ushbu maktabning xalqaro tanlovlardagi natijalari ham ancha salmoqlidir. Jumladan:

- 2012-yili maktabning fortepiano sinfi o’quvchisi D.Kiselyova Fransiyada o’tkazilgan N.Rubinshteyn nomli tanlovda 1-o’rinni, A.Skryabin nomidagi ko’rik-tanlovda 3-o’rinni;
- 2012-yili Moskvada bo’lib o’tgan “Щелкунчик” nomli tanlovda maxsus diplomni;
- 2014-yili maktabning fortepiano sinfi o’quvchisi A.Hafizxonov Fransiyada o’tkazilgan N.Rubinshteyn nomli tanlovda 2-o’rinni;
- 2015-yili Italiyada o’tkazilgan “Citta de Barletto” ko’rik-tanlovida esa A.Hafizxonov 1-o’rinni egalladi.

Qo’qon shahridagi 6-BMSMning 2015-yilga qadar bo’lgan yutuqlari quyidagicha:

- 2011-yili Qarshi shahrida o’tkazilgan Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi ko’rik-tanlovda bir nafar o’quvchisi 1-o’rinni;
- 2013-yili o’tkazilgan “Yangi avlod forumi”da bir nafat ishtirokchisi 2-o’rinni;
- 2013-yili o’tkazilgan “Akademik cholg’u va estrada ijrochiligi” ko’rik-tanlovida ikki nafar o’quvchisi 2-o’rinni;
- 2014-yili Qarshi shahrida o’tkazilgan Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi ko’rik-tanlovda bir nafar o’quvchisi 2-o’rinni;
- 2013, 2014, 2015-yillarning aprel oyida Boku shahrida tashkillangan Islom davlatlari o’rtasidagi xalqaro tanlovlarning barchasida o’quvchilari 3-o’rinni egalladi.

Qo’qon shahridagi 7-BMSM arxivlaridan esa yanada “qadimiyoq” ma’lumotlarni topdik:

- 1999-yili Buxoroda tashkillangan “Qaro ko’zim” yosh maqomchilar tanlovida maktab o’quvchilarining ishtiroklari nihoyatda qimmatli ma’lumotdir.
- 2001-yili Toshkentda o’tkazilgan Muhiddin Qori Yoqubov nomli tanlovda ishtirok etgan o’quvchi 3-o’rinni;
- 2002-yilda Andijonda o’tkazilga Muxtor Ashrafiy nomidagi tanlovda ishtirok etgan o’quvchisi 2-o’rinni;
- 2004-yili Toshkentda o’tkazilgan Muhiddin Qori Yoqubov nomli tanlovda ishtirok etgan o’quvchi 3-o’rinni egallagan.

Salohiyat jihatidan viloyatda yuqori o’rinda turuvchi Toshloq tumanidagi 22-BMSMning yutuqlariga nazar tashlaymiz:

- 1993-yili o’tkazilgan Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi respublika ko’rik-tanlovida maktab o’quvchisi N.Ataboyeva 3-o’rinni;
- 2007-yili o’tkazilgan Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi respublika ko’rik-tanlovida maktab o’quvchisi B.Eshonov 1-o’rinni ;
- 2011-yili o’tkazilgan Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi respublika ko’rik-tanlovida maktab o’quvchisi A.Abdurahimov 1-o’rinni;

- 2014-yili o'tkazilgan Muhiddin Qori Yoqubov nomidagi respublika ko'rik-tanlovida maktab o'quvchilari B.Bahodirov 2-o'rinni va F.Sobirov 3-o'rinni;
- 2014-yili o'tkazilgan "Yagonasan muqaddas vatan" respublika tanlovida F.Karimova 2-o'rinni;
- 2015-yili Rossiyada o'tkazilgan "Золотое кольцо" ("Oltin uzuk") xalqaro tanlovida A.Abdurahimov 1-o'rinni, J.Alijonov 3-o'rinni egallagan.

Davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida birgina oxirgi uch yil davomida viloyatimizdagi barcha musiqa va san'at maktablaridan jami 215 nafar o'quvchi xalqaro va respublika miqyosidagi ko'rik-tanlovlarida ishtirok etdi. Ushbu ishtirokchilardan respublika tanlovlarida 47 nafari 1-o'rinni, 16 nafari 2-o'rinni, 13 nafari 3-o'rinni; xalqaro tanlovlarida esa 6 nafari gran-pri, 47 nafari 1-o'rin, 22 nafari 2-o'rin, 9 nafari 3-o'rin sohibi bo'ldi. 30 ta bolalar musiqa va san'at maktablari ichida tanlovlardagi ishtiroki va erishgan natijalarining yuqoriligi bo'yicha Rishton tumani 21-BMSM (50 nafar ishtirokchi), Marg'ilon sharidagi 8-BMSM (29 nafar ishtirokchi), Farg'ona shahridagi 3-BMSM (15 nafar ishtirokchi), O'zbekiston tumanidagi 23-BMSM (14 nafar ishtirokchi), Qo'qon shahridagi 5-BMSM (12 nafar ishtirokchi) beshtalik o'rinni egalladi. Afsuski, musiqa va san'at maktablari ichida Quva tumani 19-BMSM, Rishton tumani 24-BMSM, Farg'ona tumani 26-BMSMlар uch yilda birorta ham tanlovda ishtirok etmagan [9].

2017-2020-yillarda Farg'ona viloyati musiqa va san'at maktablari musiqa yo'nalishi bo'yicha Bolgariyada o'tkazilgan "Мир. Искусства. Мопе" ("Tinchlik. San'at. Dengiz"), Ispaniyada o'tkazilgan "Fiestalonia Milenio" Open Asia, "Dengiz quyosh", "Таланты Европы" ("Yevropa iste'dodlari"), Italiyada o'tkazilgan "Citta di Barletto", "Open Italy", Ozarbayjonda o'tkazilgan "Mug'om", Mumtoz musiqa va yosh ijrochilarining VII va VIII xalqaro ko'rik tanlovları, "Sharq atirguli", Qozog'istonda o'tkazilgan "Золотая пчёлка" ("Oltin asalari"), Pekinda o'tkazilgan "Звёзда Пекина" ("Pekin yulduzi"), Rossiyada o'tkazilgan "Чудеса искусства" ("San'at mo'jizasi"), "Салют талантов" ("Iste'dodlar salomi"), "Золото осени" ("Kuz oltini"), "Тихая моя родина" ("Tinch vatanim"), "Живой родник" ("Tirik buloq"), "Сохраняем традиции" ("An'analarni saqlang"), "На творческом олимпе" ("Ijod olimpida"), "Престиж" ("Obro'-e'tibor"), "Золотой феникс" ("Oltin feniks"), "Культура-мост к дружбе" ("Madaniyat-do'stlik ko'prigi"), "Время знаний" ("Bilim vaqtı"), Belarusda o'tkazilgan "Кубок Европы", "Белорусские узоры" ("Belorus naqshlari") kabi xalqaro ko'rik tanlovlarida faol ishtirok etib faxrli o'rirlarni egalladilar.

Musiqa yo'nalishida respublika miqyosida o'tkazilgan "Kamalak yulduzları", "Iste'dod g'unchalari", "O'zbekiston-umumiy uyimiz", "Ona yurt ohanglari", "Akademik va estrada ijrochiligi", "Ansambllar" respublika ko'rik-tanlovi, har yili o'tkaziladigan Muhiddin Qori Yoqubov nomli tanlov, E.Vohidovning 80 yilligiga bag'ishlangan respublika qo'shiqlar tanlovi kabi ko'rik-tanlovlarida ham munosib qatnashib kelmoqdalar.

## XULOSA

Mustaqillik yillarida viloyat musiqa va san'at maktablarida an'analarni milliy ruhda rivojlantirish borasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Musiqa maktablaridagi yo'nalishlar tarkibi kengayib, sovet hokimiyati davrida chetda qolgan milliy cholg'u sozlari yo'nalishlariga e'tibor kuchaytirildi. Milliy cholg'u sozlarimiz xalqaro miqyosidagi ko'rik-tanlov va festivallarda dunyo san'at ahlini hayratda qoldirib kelmoqda. Ushbu sohada dildan xizmat qilayotgan soha namoyondalari va ustoz-pedagoglar mehnati esa davlat va hukumat tomonidan munosib taqdirlanib kelmoqda. Shuningdek, maktablarda tahsil olayotgan yoshlarning jahon musiqa va san'at "maydonlari"da o'z iste'dodlarini namoyish etishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratildi. Ushbu imkoniyatlardan foydalangan viloyat musiqa va san'at maktabi o'quvchilari respublika va xalqaro tanlovlarida faxrli o'rirlarni egallaq qaytmoqdalar.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Sharq taronalari" o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i tabrik so'zi // Xalq so'zi. 2019-yil 27-avgust.
2. Farg'ona viloyat davlat arxiv. 1125-fond. 6-ro'yxat. 310-yig'ma jild.28-varoq.
3. Farg'ona viloyat davlat arxiv. 1125-fond. 6-ro'yxat. 441-yig'ma jild.19-varoq.
4. Farg'ona shahar 2-BMSM joriy arxiv. Diplomlar.
5. Ирзаев Б. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда мусиқа маданиятининг ривожланиши. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015.

ILMIY AXBOROT

6. Murtozova S., Ergasheva Y. O'zbekistonda musiqa madaniyatining mustaqillik davri tarixi. – Qarshi: Intellekt, 2022
7. Akbarova, N. (2023). MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG'ONA VILOYATI MUSIQA MAKTABLARI FAOLIYATI: YUTUQLAR VA MUAMMOLAR. *Interpretation and Researches*, 1(1). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1199>
8. Haydarov A. Innovatsion yondashuv-dolzarb masala // Madaniyat № 35, 1.10.2020.
9. Farg'ona viloyati madaniyat boshqarmasi hisoboti. 2020-yil